

BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

34 538

109,2 % 

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

32 105

107,4 % 

Yangi tashkil etilgan korxonalar (2022- yilda)


2 509

80,0 % 

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bora-sida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlash-tirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar- iyun oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar- iyun oylarida, birlikda)




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)

6



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,5 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



- Dehqonchilik, chovachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish
- O'rmon xo'jaligi
- Baliq xo'jaligi



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)


7



*Jami faoliyat
ko'rsatayotgan sanoat
korxonasi va
tashkilotlarning
umumiyligi o'tgan
yilning shu davriga
nisbatan **3,2** foizga
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 4 902 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishslash) sanoatida – 102,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,4%), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash – 111,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,1 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 85,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 126,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,6** foizga oshdi



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




2,6
foizga oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




5,3
foizga
oshdi




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

9



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,5 foizga oshdi**



Kichik tadbirkorlik subyektlar isoni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **43,7 foizga oshdi**



Xususiy korxonalar



2022- y.
2021- y.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

10

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

767



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

23



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

13



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



407

yashash bo'yicha xizmatlar



2 040

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 2 447 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,2 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 105,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 83,4 %), yashash bo'yicha xizmatlarning 108,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 16,6 %) o'sishidir.


Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 3 714 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 323 taga yoki 109,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 347 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 227 taga yoki 107,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 256 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 276 taga yoki 51,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

13




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra 379 tani tashkil etib, ulardan 375 tasi yoki 98,9 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 53 taga yoki 116,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- iyun oylarida viloyatimizda 28 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- iyun oylarida, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)

14



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	113	223	291	322	375
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5	21	20	30	33
Sanoat	65	101	124	129	136
Qurilish	5	20	28	34	33
Savdo	18	39	61	71	102
Tashish va saqlash	-	2	6	5	8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9	18	23	23	25
Axborot va aloqa	-	1	1	1	5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	4	6	7	8
Boshqa turlar	9	17	22	22	25


**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

15

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Viloyat bo'yicha	375	211	164
Buxoro shahar	200	97	103
Kogon shahar	17	14	3
tumanlar:			
Olot	8	2	6
Buxoro	26	20	6
Vobkent	5	4	1
G'ijduvon	11	7	4
Kogon	29	20	9
Qorako'l	8	6	2
Qorovulbozor	11	5	6
Peshku	21	9	12
Romitan	15	10	5
Jondor	14	10	4
Shofirkon	10	7	3

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 200 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 53,3 %), Kogon tumani 29 ta (7,7 %), Peshku tumani 21 tani (5,6 %), Kogon shahar 17 ta (4,5 %), Buxoro tumani 26 ta (6,9 %), hamda Jondor tumanlarida 14 tani (3,7 %) tashkil etadi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2018-2022- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investisiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

17




2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Buxoro shahri (27,8 %), G'ijduvon (11,0 %), Romitan (8,4 %), Buxoro (7,6 %), Jondor (6,8 %), Peshku (5,9 %), Shofirkon (5,9 %), Kogon (5,4 %), Qorako'l (5,7 %), Vobkent (5,3 %), Kogon shahar (4,2 %), Olot (3,6 %), Qorovulbozor (2,4 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022-yil yanvar- iyun oylarida, birlikda)

2022- yilning yanvar- iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (24,3 %), G'ijduvon (10,9 %), Buxoro (8,3 %), Romitan (10,0 %), Peshku (4,4 %), Kogon (7,4 %), Jondor (8,1 %), Vobkent (6,0 %), Shofirkon (5,7 %), Qorako'l (5,4 %), Olot (3,5 %), Qorovulbozor (2,5 %) tumanlari va Kogon shahar (3,8 %), ulushiga tegishli.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Buxoro shahri (28,7 %), G'ijduvon (10,4 %), Romitan (8,8 %), Buxoro (7,9 %), Jondor (7,1 %), Peshku (5,8 %), Shofirkon (5,7 %), Kogon (5,7 %), Vobkent (5,3 %), Qorako'l (4,9 %), Kogon shahar (4,2 %), Olot (3,2 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2022-yilning yanvar- iyun oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The menu includes "ASOSIY SAHIFA", "QO'MITA HAQIDA", "AXBOROT XIZMATI", "INTERAKTIV XIZMATLAR", "OCHIQ MA'LUMOTLAR", "MUROJAATLAR", and "KONTAKTLAR". A search bar at the top right contains "Qidirish" and "Qidirish" buttons. The central part of the page features a search form with dropdown menus for "Xizmatlar ro'yxati", "Elektron hisobot", "KTYaDR ma'lumotlari", "Usulby materiallar", and "Statistik klassifikatsiyalar". The "Statistik klassifikatsiyalar" option is highlighted. Other options include "Taqdim ettiladigan hisobotlar ro'yxati" and "Korxona pasporti". To the left is a sidebar titled "RASMIYIY STATISTIKA" with links to various statistical reports like "Elon qilish taqvim", "Metama'lumotlar", etc. To the right is a sidebar titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" with links to "Ahollini ro'yxatga olish-2022", "Harakatlar strategiyasi", etc.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Buxoro viloyati
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: (65) 223-83-20